



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI	169
Azizova Dilafruz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	176
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	188
Tolipova Malika Saloxidinovna	



AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
M.I. Murodova	
“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI	203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	211
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
IJTIMOIIY HIMOA TIZIMIDA MOLİYAVIY RESURLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	221
Aipova Iroda Ikramovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI	226
Musayeva Shoira Azimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna	
РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА.....	239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович	
REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLİYALASHTIRISHDA ISLOM MOLİYASINING O'RNINI OSHIRISH.....	246
Sevara Hakimova Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI	251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna	
YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLİYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO'NALISHLARI	255
Turanov Suhrob Bahodir o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLİYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR	262
Nazarov G'ulom Akmal o'g'li	
“YASHIL IQTISODIYOT” VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA'LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O'QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI	269
Raxshona Nabibullayeva	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	275
Baxadirov Alisher Komilovich	
TIJORAT BANKLARNING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	281
Nomozov Umid Iskandarovich	
GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING.....	285
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	293
Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna	
XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODEL, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG'OR TAJRIBALARI	297
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o'g'li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi	
XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI	302
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI O'RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHDAGI TO'SIQLAR	306
Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH.....	316
Xamidova S.Ya.	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	322
Ro'zieva Gulchexra O'sarovna	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O'TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	328
Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna	
O'ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	333
Isomiddinova Xilola Xasan qizi	
ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ.....	338
Муниса Турдибаева	
O'ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	350
Xamdamova Guljaxon Ablakulovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	357
Malikova Ug'iloy Abdurasul qizi	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH VA CO ₂ EMISSIYASI: EKOLOGIK KUZNETS EGRI CHIZIG'I (EKC) ASOSIDA TAHLIL	363
Choriyev Maxmayoqub	
YIRIK KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RISK-MENEJMENT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: ZAMONAVIY TAJRIBA VA "NAVOIYAZOT" AJ AMALIYOTI	368
Sayidova Shahlo Toshtemirovna	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI STRATEGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	373
Lutpullayev Shukrullo Qudratullayevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH MODELİ	381
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODIKASI.....	386
Qo'ldosheva Xolisa	



ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODIKASI

Qo'ldosheva Xolisa

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Moliyaviy tahlil kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda ichki nazorat tizimi samaradorligini baholashning amaldagi yondashuvlari tahlil qilinib, COSO modeli hamda boshqaruv hisobi elementlarini integratsiyalash asosida yangi baholash metodikasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodika ichki nazorat elementlarini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi hamda korxona boshqaruv samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ichki nazorat, COSO modeli, samaradorlik indeksi, boshqaruv hisobi, risklarni boshqarish, monitoring.

Abstract. This article analyzes existing approaches to evaluating the effectiveness of internal control systems in enterprises and develops a new assessment methodology based on the integration of the COSO model and management accounting elements. The proposed methodology enables the quantitative evaluation of internal control components and serves as a tool for determining the management effectiveness of an enterprise.

Key words: internal control, COSO model, effectiveness index, management accounting, risk management, monitoring.

Аннотация. В данной статье анализируются существующие подходы к оценке эффективности системы внутреннего контроля на предприятиях, а также разработана новая методика оценки на основе интеграции модели COSO и элементов управленческого учёта. Предложенная методика позволяет оценивать элементы внутреннего контроля через количественные показатели и служит инструментом определения эффективности управления предприятием.

Ключевые слова: внутренний контроль, модель COSO, индекс эффективности, управленческий учёт, управление рисками, мониторинг.

KIRISH

Ichki nazorat tizimi samaradorligini baholashda COSO va boshqaruv hisobi elementlarini birlashtirish orqali yuqori samaradorlikni baholash modeli ishlab chiqildi hamda har bir COSO modelining elementlari samaradorligini baholash tarkibiga boshqaruv hisobi ko'rsatkichlarini kiritish natijasida yuqori natijaga erishish taklif qilindi. Har bir elementda ichki nazorat tizimi samaradorligini aniqlashda boshqaruv hisobi ma'lumotlari ham o'rganilsa, shundagina biz ichki nazorat tizimining samarali ishlayotganiga to'g'ri baho bergan bo'lamiz. Ushbu baholash metodi orqali korxona va tashkilotlar qayerlarda salbiy holatlar mavjudligini hamda ularning ichki nazorat tizimiga va boshqaruv hisobi uchun zarur bo'lgan axborotlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganini ko'rish, shuningdek, ularni bartaraf etishda aniq chora-tadbirlarni belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash masalasi zamonaviy korporativ boshqaruv va moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ichki nazoratni tashkil etish, uning samaradorligini baholash metodlari hamda integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Avvalo, ichki nazorat tizimining nazariy asoslari COSO tomonidan ishlab chiqilgan konseptual model orqali keng yoritilgan. COSO (2013) ichki nazoratni beshta asosiy komponent orqali tavsiflaydi: nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyati, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring. Mazkur model ichki nazorat samaradorligini kompleks baholashda asosiy metodologik baza sifatida qaraladi.



Shuningdek, International Federation of Accountants tomonidan ishlab chiqilgan standartlar ham ichki nazorat tizimini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. IFAC (2012) tadqiqotlarida ichki nazorat tizimi moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, firibgarlik xavfini kamaytirish va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida talqin etiladi.

Ichki audit va nazorat tizimining samaradorligini baholash masalalari The Institute of Internal Auditors tomonidan ham chuqur o'rganilgan. IIA (2017) ichki auditni riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etishni taklif etib, ichki nazorat samaradorligini baholashda audit mexanizmlarining integratsiyasini muhim deb hisoblaydi.

Ilmiy adabiyotlarda ichki nazorat samaradorligini baholashning turli yondashuvlari mavjud. Masalan, Robert S. Kaplan va David P. Norton tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard (BSC) modeli ichki nazoratni strategik ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan indikatorlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari, Lawrence B. Moeller (2011) o'z tadqiqotlarida ichki nazorat tizimini baholashda risklarni boshqarish, audit va compliance tizimlarini yagona platformada birlashtirish zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, an'anaviy nazorat yondashuvlari zamonaviy korporativ muhit talablariga to'liq javob bermaydi.

Rossiyalik va MDH olimlari ham mazkur masalaga katta e'tibor qaratgan. Xususan, V.V. Kovalev va A.D. Sheremet ichki nazoratni moliyaviy tahlil bilan integratsiyalashgan holda o'rganib, korxona samaradorligini baholashda nazorat tizimining rolini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida ichki nazorat ko'rsatkichlari likvidlik, rentabellik va moliyaviy barqarorlik indikatorlari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

O'zbekistonda ham ichki nazorat tizimi va uning samaradorligini baholash masalalari iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A. Vahabov, B. Hasanov va R.D. Dusmuratov o'z ilmiy ishlarida boshqaruv hisobi hamda ichki nazorat tizimining o'zaro bog'liqligini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, ichki nazorat tizimining samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv hisobining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa ichki nazorat tizimini raqamli texnologiyalar asosida baholash masalalari dolzarb hisoblanadi. Masalan, World Bank va McKinsey & Company hisobotlarida sun'iy intellekt hamda Big Data texnologiyalari yordamida ichki nazorat samaradorligini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud yondashuvlarning aksariyati alohida komponentlarga asoslangan bo'lib, ichki nazorat tizimini kompleks va integratsiyalashgan tarzda baholash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aynan shu holat integratsiyalashgan metodologiyani ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ichki nazorat tizimi samaradorligini baholashda COSO modeli va boshqaruv hisobi elementlarini integratsiyalashgan yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu tizimni ishlab chiqishdan maqsad ham ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirishda har bir omilning qanchalik darajada ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatish va buning natijasida eng yuqori samaraga erishishni ta'minlash hisoblanadi.

Chunki har qanday hisob, raqam yoki ma'lumot boshqaruv hisobining qanday va qay tarzda rejalashtirilganligi natijasida shakllantiriladi. Shunga ko'ra, nazorat muhitini quyidagi holatda baholash tizimi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. Nazorat muhiti elementlari

Element nomi	Ilmiy ta'rif	Korxonadagi amaliyot
Etika va halollik	Korxona faoliyatida adolat, shaffoflik va qonuniylilikni ustuvor qilish tamoyillari	Xodimlar uchun "Etika kodeksi" ishlab chiqilgan va yillik etik treninglar o'tkaziladi
Tashkiliy tuzilma	Vakolat va javobgarlikni aniq belgilash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish	Har bir bo'limning lavozim yo'riqnomasi va vakolat chegaralari mavjud
Kadrlar siyosati	Malakali mutaxassislarni tanlash, o'qitish va rag'batlantirish tizimi	Har chorakda ichki malaka oshirish kurslari o'tkaziladi
Rahbariyat mas'uliyati	INT samaradorligi uchun rahbariyatning doimiy nazorati	Bosh direktor har oy ichki nazorat hisobotini tasdiqlaydi



Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, biz ichki nazorat muhitining asosiy elementlaridan biri sifatida nazorat muhitini tanladik. Tadqiqot davomida ushbu elementni asosiy to'rtta tarkibiy qismga ajratish orqali ichki nazorat samaradorligini baholash imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Mazkur tarkibiy qismlar alohida savolnomalar tuzish orqali shakllantirildi. Birinchi to'rtta tarkib quyidagicha belgilandi:

1. Etika va halollik
2. Tashkiliy tuzilma
3. Kadrlar siyosati
4. Rahbariyat mas'uliyati

Ushbu tarkibiy qismlar nazorat muhitining korxonadagi ichki muhit qay darajada shakllanganligini belgilab beradi. Korxonadagi muhitning qay darajada samarali ekanligi ichki tartib-qoidalar hamda mahalliy nizomlarning mavjudligi va ularning ijrosi bilan uzviy bog'liqdir. Har bir nizom yoki tartibning mavjudligi hamda uning ijrosi qay tarzda tashkil etilganligi korxonada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ichki nazorat tizimi har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt uchun zarur bo'lgan tizimlardan biri bo'lib, uni boshqaruv hisobidan alohida holda tasavvur qilish qiyin. Ichki nazorat tizimini korxonadagi boshqaruv jarayonlarini doimiy nazorat qilib boruvchi tizim sifatida bema'lol ta'riflash mumkin. Ichki nazorat tizimining mavjud emasligi boshqaruv qarorlari uchun zarur bo'lgan axborotlarning yetib kelishi, ularning aniqligi va ishonchligiga shubha uyg'otadi. Nazorat mavjud bo'lgan joyda tartib va aniqlik bo'ladi. Shu sababli, ichki nazorat tizimini to'liq tizimlashtirish boshqaruvni ancha yengil va ishonchli qiladi.

Ichki nazorat tizimi haqida ko'plab rahbarlarning yetarli darajada bilimga ega emasligi ushbu tizimning amalda mavjud bo'lmasligiga olib keladi. Har bir tizim uzluksizlik tamoyiliga javob berishi lozim. Agar tizim uzluksiz faoliyat yuritmasa, u to'laqonli tizim hisoblanmaydi.

Ichki nazorat tizimini baholashda bir qancha xalqaro modellar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p qo'llaniladigani COSO modeli hisoblanadi. COSO modeli asosan moliyaviy hisob elementlariga qaratilganligi sababli boshqaruv hisobini to'liq qamrab olmaydi. U boshqaruvning faqat moliyaviy hisob bilan bog'liq qismini qamrab olishi mumkin, xolos. Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, boshqaruv hisobining aniqligi, to'g'ri tizimlashtirilganligi va nazorat qilinishi moliyaviy hisob ma'lumotlarining haqqoniyligini ta'minlaydi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot natijasida COSO modeli elementlarini boshqaruv hisobi elementlari bilan uyg'unlashtirish orqali COSOMA metodi ishlab chiqildi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga taklif etildi.

Ichki nazorat tizimi samaradorligini baholashda COSO va boshqaruv hisobi elementlarini birlashtirish orqali yuqori samaradorlikni baholash modeli ishlab chiqildi hamda har bir COSO modeli elementining samaradorligini baholash tarkibiga boshqaruv hisobi ko'rsatkichlarini kiritish orqali yuqori natijalarga erishish taklif qilindi. Har bir element bo'yicha ichki nazorat tizimi samaradorligini aniqlashda boshqaruv hisobi ma'lumotlari ham o'rganilsa, shundagina ichki nazorat tizimining samarali ishlayotganiga to'g'ri baho berish mumkin bo'ladi. Chunki har qanday hisob, raqam yoki ma'lumot boshqaruv hisobining qanday tashkil etilgani va rejalashtirilgani natijasida shakllantiriladi.

Nazorat muhitining umumiy samaradorlik darajasi yuqoridagi to'rtta element tarkibining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi asosida aniqlanganda, samaradorlik indeksi "Elegant Garment Textile" MCHJ XKda 67 % ni tashkil etdi (3.14-jadvalga qarang). Bu esa ichki nazorat tizimining ushbu elementi bo'yicha samaradorlik darajasi past ekanligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Nazorat muhiti bo'yicha samaradorligini baholash taklifi asosida tahlil¹

	№	Element nomi	Baholash mezon	Natija (%)	Izoh
Umumiy nazorat muhiti bo'yicha natijaning aniqlanishi	1	Etika va halollik	Xodimlarning etik kodeksga rioya qilish darajasi	60%	
	2	Tashkiliy tuzilma	Vakolat va javobgarliklarning aniqligi	60%	
	3	Kadrlar siyosati	Malaka oshirish va kadrlar barqarorligi	80%	
	4	Rahbariyat mas'uliyati	Rahbariyatning ichki nazoratga bo'lgan yondashuvi	66%	
	Samaradorlik darajasi			67%	

1 Elegant garment textile MCHJ XK ni tadqiqotchi tomonidan baholash natijasi



Nazorat faoliyatlari elementi axborotlar va ma'lumotlarning qanchalik darajada aniqligi hamda shaffofligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, desak to'g'ri bo'ladi. Nazorat faoliyatining korxonada qay darajada va qanday tizimlilik asosida tashkil etilgani uning aniq hamda ishonchli ma'lumotlarga boy ekanligini ko'rsatadi. Har bir nazorat faoliyati bo'yicha ularni amalga oshirish darajasi, mavjud kamchiliklar hamda xatoliklarni hisobga olish orqali yakuniy samaradorlikni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi (3-jadval).

3-jadval. Risklarni baholash matritsasi samaradorligini baholash tahlili²

Risklarni baholash matritsasi	№	Risk turi	Ehtimollik (P)	Ta'sir (I)	Umumiy xavf darajasi (%)	Izoh
	1	Xomashyo narxining oshishi	80	100	90%	
	2	Moliyaviy taqchilik yuzaga kelishi	50	80	65%	
	3	Xom ashyo va materiallarning o'z vaqtida yetib kelmasligi	50	80	65%	
	4	Ishlab chiqarishdagi texnik nosozliklar	60	90	75%	
	5	Brakning me'yordan oshishi	80	100	90%	
	6	Tayyor mahsulotning eksport bozorida talab pasayishi	70	90	80%	
	7	Valyuta kursining keskin o'zgarishi	90	100	95%	
	8	Mehnat intizomining buzilishi	60	80	70%	
	Samaradorlik darajasi				79%	

Nazorat faoliyatlarining qo'llanilishi har bir korxonada individual xususiyatga ega bo'lib, ularning ixtisosligi, asosiy faoliyati hamda boshqa xususiyatlaridan kelib chiqadi. Nazorat faoliyati tarkibi ham mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari asosida shakllantirildi. Ularni amalga oshirish darajasi baholanayotgan davrda necha foiz qo'llanilganligiga qarab aniqlanadi. Bunda aniqlovchi mutaxassis foydalanish soni va amalda foydalanilgan holatlar sonini hisobga olgan holda baholashni amalga oshirishi lozim bo'ladi. Ularni qo'llash jarayonida aniqlangan kamchiliklar ham foizlarda baholanadi. Yakuniy samaradorlik esa amalga oshirish darajasi hamda aniqlangan kamchilik darajasining o'rta arifmetik ko'rsatkichi asosida aniqlanadi. Umumiy samaradorlik indeksi barcha nazorat faoliyatlarining yakuniy samaradorlik indekslarining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi orqali hisoblanadi. "Elegant Garment Textile" MCHJ XK faoliyati baholanganda quyidagi samaradorlik darajasi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval. Nazorat faoliyatlari elementining samaradorligini baholash tahlili³

Nazorat faoliyatlari	№	Nazorat faoliyati	Amalga oshirish darajasi (%)	Aniqlangan kamchiliklar (%)	Yakuniy samaradorlik (%)
	1	Moliyaviy operatsiyalarni 2 bosqichli tasdiqlash	80%	3%	77%
	2	Ombor zaxiralarini inventarizatsiya qilish	80%	5%	75%
	3	Xarid va to'lov vakolatlarini cheklash	80%	10%	70%
	4	Mahsulot sifatini uch bosqichli nazorat	70%	5%	65%
	5	Ishlab chiqarish xarajatlarni nazorat qilish	60%	20%	40%
	6	Materiallardan samarasiz foydalanishni oldini olish	60%	10%	50%
	7	Ishlab chiqarish jarayonini to'liq tizim asosida nazorat qilish	70%	8%	62%
	8	Buyurtmalar sifatli bajarilishini ta'minlash	80%	10%	70%
	9	Me'yordan salbiy og'ishishlarni oldini olish	50%	4%	46%
	10	Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobotlarni tizimli tasdig'ini ta'minlash	60%	5%	55%
	11	Reja va haqiqiy xarajatlar tahlilini aniqlash	70%	12%	58%
	12	Rahbarlar tomonidan doimiy nazorat ta'minlanishi	75%	9%	66%
	Samaradorlik darajasi				61%

² Elegant garment textile MCHJ XK ni tadqiqotchi tomonidan baholash natijasi

³ Elegant garment textile MCHJ XK ni tadqiqotchi tomonidan baholash natijasi



Nazorat faoliyatlarining tizimli tashkil etilishi axborot va ma'lumotlar uzluksizligini ta'minlaydi hamda vazifalarning o'z vaqtida, to'g'ri va aniq bajarilishiga xizmat qiladi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt individual xususiyatga ega bo'lib, uning faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish ishlari faoliyat turi hamda ish hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ichki nazorat bo'limi bilan birgalikda rahbariyat ushbu tizimning uzluksizligini ta'minlashi, uni doimiy nazoratda ushlashi hamda aniq belgilangan tartib asosida tekshiruvlarni muntazam ravishda amalga oshirib borishi lozim.

Nazorat faoliyati qanchalik sust bo'lsa, korxona faoliyatining sifati ham shunchalik past bo'ladi. Chunki bu holat xodimlar va ishchilarning o'z lavozimlari hamda vazifalariga nisbatan loqayd bo'lib qolishiga olib keladi. Nazorat qanchalik kuchli tashkil etilsa, o'g'rilik, talon-toroj va yo'qotishlar shunchalik kamayadi. Bu esa, o'z navbatida, rahbariyat tomonidan nazoratning qay darajada va qanday tartibda amalga oshirilayotganligi bilan uzviy bog'liqdir.

Nazorat muhitining ham nazorat faoliyatiga bevosita ta'siri mavjud bo'lib, muhit yaxshi tashkil etilmagan bo'lsa, nazorat faoliyatlari ham yuqori natija bermasligi mumkin. Shu sababli barcha elementlarning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlash yuqori samaradorlikka erishish uchun muhim poydevor hisoblanadi. Ko'plab hollarda qarindosh-urug'chilik yoki yaqin tanishlarning ishga olinishi ma'lum ma'noda ichki tartibning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatda ularni nazorat punktlariga qo'yish yoki tekshiruv vazifalarini topshirish nazoratning susayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu holat amaliyotda bir necha bor o'z tasdig'ini topgan. Shu sababli eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lgan kadrlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratish lozim (5-jadval).

5-jadval. Axborot va aloqa tizimi samaradorligini baholash tahlili⁴

Axborot va aloqa tizimi	№	Aloqa kanali	Foydalanish darajasi (%)	Axborot yetkazish aniqligi (%)	Umumiy samaradorlik (%)
	1	Ichki elektron pochta	80%	80%	80%
	2	Telegram ishchi guruhlar	80%	90%	85%
	3	Haftalik yig'ilishlar	40%	80%	60%
	4	ERP tizimi	80%	90%	85%
Samaradorlik darajasi					78%

Axborot va aloqa tizimining qay darajada tashkil etilganligi hamda uning mavjudligini aniqlash uchun ushbu baholash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra axborot almashinuvining tezligi va shaffofligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Ichki nazorat tizimining yakuniy elementi hisoblangan monitoring qismi uchun ham alohida hisob jadvali ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, ichki tizimda mavjud bo'lgan nazorat va tekshiruv turlari hamda ularning qanchalik darajada samarali ishlashi baholanadi. Mazkur ma'lumotlar asosida monitoring samaradorligi aniqlanadi. Monitoring har bir qismning yakuniy natijasini tekshiruvchi hamda sifatni ta'minlovchi muhim element hisoblanadi (6-jadval).

6-jadval. Monitoring samaradorligini baholash tahlili

Monitoring	№	Monitoring turi	O'tkazilish davriyligi (%)	Aniqlangan muammolarni bartaraf etish darajasi (%)	Umumiy samaradorlik (%)	Izoh
	1	Choraklik ichki audit	80%	60%	70%	
	2	Oylik boshqaruv hisobotlari	70%	80%	75%	
	3	Ishlab chiqarishda joyida kuzatuv	80%	90%	85%	
	4	Javobgarlik markazlarini yagona javobgarlik markazi orqali nazorati	70%	80%	75%	
	5	Yopiq tekshiruvlar	60%	90%	75%	
Samaradorlik darajasi					76%	

4 Elegant garment textile MCHJ XK ni tadqiqotchi tomonidan baholash natijasi



Ichki nazorat tizimining yakuniy elementi bo'lgan monitoring qismi uchun alohida hisob jadvali ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra ichki tizimda mavjud nazorat va tekshiruv turlari hamda ularning qanchalik darajada samarali ishlashi aniqlanadi. Monitoring elementi orqali tekshiruv va nazorat ishlari qanday vaqt oralig'ida amalga oshirilayotganligini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, tekshiruvlarning qisqa muddat oralig'ida muntazam amalga oshirilishi xato va kamchiliklar sonining kamayishiga xizmat qiladi.

Hisobotlarning belgilangan davrlarda muntazam topshirib borilishi vazifalarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi hamda ishlarning ortda qolishining oldini oladi. Shuningdek, javobgarlik markazlari ustidan belgilangan bosh javobgarlik markazining nazorat o'rnatishi bir qator yo'qotishlarning oldini olish imkonini beradi.

Har bir element bo'yicha yuqori samaradorlikka erishish uchun ularni uzviy bog'liqlik asosida tizimlashtirish lozim bo'ladi. Masalan, choraklik audit tekshiruvlarini o'tkazish uchun nazorat muhitida ichki audit tekshiruvlarini amalga oshirish tartibini belgilovchi nizomni ishlab chiqish va unda tekshiruv muddatlarini aniq ko'rsatish zarur. Bundan tashqari, lavozim yo'riqnomalarida ushbu nizom talablariga rioya etish majburiyatini yuklash hamda har chorakda hisobotlarni rahbariyatga taqdim etish tartibini belgilash yuqori darajadagi tizimli samaradorlikni ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan samaradorlikni aniqlash elementlari boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobot elementlarini qamrab olgan bo'lib, ular yuqori samaradorlikka erishishga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish hamda to'g'ri chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. Korxonaning ichki nazorat tizimi samaradorligini aniqlash barcha elementlarning o'rtacha arifmetik ko'rsatkichini hisoblash orqali amalga oshiriladi (7-jadval).

7-jadval. Ichki nazorat tizimining samaradorlik darajasi tahlili⁵

Ichki nazorat tizimining samaradorlik darajasi		72%
Yuqori	$USI \geq 85\%$	
O'rta	$70\% \leq USI \leq 84\%$	72%
Past	$USI < 70\%$	

“Elegant garment textile” MCHJ XK baholanganda unda ichki nazorat tizimi umumiy samaradorlik indeksi 80 foizni tashkil qilib, korxonada o'rta samarali ichki nazorat tizimi tashkillashtirilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

COSOMA baholash metodining umumiy samaradorlik indeksi (USI):

Bu yerda:

- E_1 — Nazorat muhiti samaradorligi
- E_2 — Risklarni baholash samaradorligi
- E_3 — Nazorat faoliyati samaradorligi
- E_4 — Axborot va aloqa samaradorligi
- E_5 — Monitoring samaradorligi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu taklif asosida boshqaruv hamda ichki nazorat tizimi samaradorlik darajasini aniqlash uchun COSO modeliga boshqaruv hisobi ma'lumotlarini kiritish orqali yengil sanoat korxonalarida samaradorlikni aniqlashning yangi elementlar tarkibi ishlab chiqildi. Buning asosida nazorat muhiti samaradorligi, risklarni baholash samaradorligi, nazorat faoliyati samaradorligi, axborot va aloqa samaradorligi hamda monitoring samaradorligi kabi tarkibiy elementlarni alohida aniqlash orqali umumiy samaradorlik indeksi (USI)ni ishlab chiqish taklif etildi. Uning qiymati $USI \geq 85\%$ bo'lsa — tizim “yuqori samarali”, $USI 70-84\%$ oralig'ida bo'lsa — “o'rta samarali”, $USI < 70\%$ bo'lsa — “takomillashtirish talab etiladi” mezonlari asosida baholanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida bobda COSO ichki nazorat modelining konseptual asoslari boshqaruv hisobi yondashuvlari, xususan, GPK modeli, byudjetlashtirish tizimi, mas'uliyat markazlari hamda KPI ko'rsatkichlari bilan integratsiya qilinib, mualliflik COSOMA metodi shakllantirildi. Ushbu model ichki nazoratni statik nazorat mexanizmi sifatida emas, balki boshqaruv hisobi orqali iqtisodiy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi dinamik boshqaruv instrumenti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

COSOMA metodi doirasida xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratish, ularni ishlab chiqarish bosqichlari hamda mas'uliyat markazlari bo'yicha tahlil qilish orqali mahsulot tannarxini shakllantirishning aniqligi oshirildi. Reja va amaldagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlarni COSO ichki nazorat komponentlari orqali

5 Elegant garment textile MCHJ XK ni tadqiqotchi tomonidan baholash natijasi



baholash esa ichki nazorat tizimining iqtisodiy mazmunini chuqurlashtirib, uning boshqaruv hisobi bilan uzviy bog'liqligini ta'minladi. Natijada, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari aniqlanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bazasi shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. COSO. (2013). Internal Control – Integrated Framework.
2. IFAC. (2012). Evaluating and Improving Internal Control in Organizations.
3. The Institute of Internal Auditors (IIA). (2017). International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing.
4. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). The Balanced Scorecard. Harvard Business School Press.
5. Moeller, L. B. (2011). COSO Enterprise Risk Management. Wiley.
6. Kovalev, V. V. (2010). Financial Analysis: Methods and Procedures.
7. Sheremet, A. D. (2008). Financial Analysis in Enterprises.
8. Vahabov, A., Ishonqulov, N., & Ibrohimov, A. (2013). Moliyaviy va boshqaruv tahlili.
9. Hasanov, B., & Xashimov, A. (2013). Boshqaruv hisobi.
10. Dusmuratov, R. D. (2013). Buxgalteriya hisobi nazariyasi.
11. World Bank. (2022). Digital Governance and Internal Control Systems.
12. McKinsey & Company. (2023). AI in Risk and Compliance.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
